

KEKSA YOSHDAGI AHOLIDA STOMATOLOGIK PATOLOGIYANING PATOGENETIK MEXANIZMLARI

Mansurova Ferangiz Madamin qizi

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Stomatologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17453577>

Annotatsiya: Ushbu maqolada keksa yoshdagi odamlarda surunkali parodontit kechishi, stomatologik kasalliklarning tarqalishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning qisqa tahlili, stomatologik kasalliklarning ortib borishi bir qancha omillar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Parodont to'qimalar, stomatologik patologiya, distrofik o'zgarishlar, gerontologik o'zgarishlar, rehabilitatsiya, ijtimoiy faollik.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti stomatologik salomatlik maqsadlarini belgilagan: «...keksalar orasida tishsizlarning soni 10% dan oshmasligi, 75% kamida 20 ta yoki undan ortiq tishlarga ega bo'lishi, chuqur parodontial cho'ntaklar esa 0,5 sekstantdan oshmasligi kerak»¹. Biroq, olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, MDH mamlakatlari va xorijda keksalar orasida stomatologik salomatlik darajasi past bo'lib, asosiy ko'rsatkichlari ushbu maqsadlarga mos kelmaydi. O'z tishlarini hech bo'lmaganda qisman saqlab qolgan keksalarning 95–100% parodont kasalliklarini davolashga muhtoj. Ushbu guruhning taxminan 15%ida parodont to'qimalarining og'ir destruksiyasi aniqlangan.

Inson qarish jarayonida barcha organlar va tizimlar bu jarayonga javob beradi: bir tomondan ular yemiriladi, ikkinchi tomondan esa yangi hayot sharoitlariga moslashadi. Bunda jag'-yuz sohasining va butun organizmning funksional va fiziologik o'zgarishlari, jumladan, gormonal, mushak, ovqat hazm qilish tizimidagi o'zgarishlar kuzatiladi. Og'iz bo'shlig'i kasalliklarining rivojlanishini belgilovchi asosiy mexanizmlar quyidagilardir: og'iz bo'shlig'i shilliq qavati epiteliyasining atrofiyasi, mikrotsirkulyatsiyaning pasayishi va elastik tolalarning yo'qolishi. Bu esa OShQ ning yuqori sezuvchanligi va jarohatlanish xavfining ortishiga olib keladi. Mineral almashinuvining pasayishi jag' suyaklarining zichligining kamayishiga sabab bo'ladi.

Yosh o'tishi bilan biologik va ijtimoiy moslashuv mexanizmlari pasayadi: keksa odam hayot sur'atiga moslashishda qiyinchiliklarga duch keladi, stressga chidamliligi pasayadi. Bu esa og'iz bo'shlig'i organlari va to'qimalarining holatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bilan birga, keksa yoshdagi kishilarda stomatologik kasalliklarning og'ir kechishiga ichki organlarning surunkali kasalliklari va ularning kombinatsiyasi – komorbidlik omili ham qo'shimcha ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda olimlar keksa yoshdagi stomatologik patologiyalarning patogenezi mexanizmlarini keng o'rganib, ularni to'g'ri tuzatish yo'llarini asoslab bermoqdalar. Parodont to'qimalari kasalliklari stomatologik patologiyalar orasida yetakchi o'rinda turadi. Yosh o'tishi bilan yuzaga keladigan suyak to'qimalarining yemirilishi parodontning yallig'lanish-destruktiv zararlanishining 100% tarqalishiga va og'ir shakllarining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Keksa yoshdagi bemorlarda parodontitning kechishi mavjud somatik kasalliklar bilan og'irlashadi, chunki bu patologiyalar umumiy patogenetik mexanizmlarga bog'liqdir. Masalan, yurak ishemik kasalligi prokoagulyant faollikni oshiradi, fibrinolitik faollikni pasaytiradi va natijada tupuk va qondagi gomotsistein konsentratsiyasining ortishiga olib keladi.

Parodontitning aterosklerotik tomir kasalliklari bilan birikishi natijasida esa gomotsistein miqdori yanada ko'proq ortadi va yallig'lanish reaksiyasi yanada kuchayadi.

Shuningdek, kekxa yoshdagi odamlarda surunkali parodontit kechishi tug'ma immunitet omillarining pasayishi, komplement tizimi disbalansi va yuqori lipoperoksidatsiya bilan kechadi, bu esa qon ivish tizimining jiddiy buzilishlariga olib keladi. Boshqa tadqiqotchilar parodontitning yemirilish jarayonida erkin radikallar bilan oksidlanish jarayoni ustunligini ta'kidlaydilar. Bunda TBA-aktiv birikmalar miqdori ortib, antioksidant himoya kamayadi. Immunitet tizimi va gomotsisteinining bu jarayondagi roli esa ikkilamchi ahamiyat kasb etadi.

Kekxa yoshdagi parodontit bemorlarida metabolik atsidoz kuzatiladi. Bu parodont to'qimalarida distrofik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, shu jumladan, suyak to'qimalarining demiralizatsiya jarayonini tezlashtiradi, oqsillar, nuklein kislotalar va lipidlarning parchalanishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu jarayon parodont to'qimalarining tiklanishini sekinlashtiradi. Karboksillanish jarayonining pasayishi – bu oqsillar va suyak matritsasining minerallanishi biosintezi jarayonining boshlang'ich bosqichidir. Fermentlar va eritrotsitlar gemoglobininig karboksillanish darajasining pasayishi esa kislorodga bog'lanish qobiliyatining kamayishiga va natijada atsidoz fonida gemik gipoksiya rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Kekxa yoshdagi bemorlarda parodontitning klinik kechishiga xos jihatlardan biri – yallig'lanish reaksiyasining nisbatan past darajada bo'lishiga qaramay, parodontal kompleksda yaqqol namoyon bo'ladigan destruktiv jarayonlarning rivojlanishidir. Bu jarayonlar immunitetning qarishi, pro- va yallig'lanishga qarshi sitokinlarning disbalansi hamda milk suyuqligidagi hujayraviiy ko'rsatkichlar o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, neyrofillar va limfotsitlarning ulushi sezilarli darajada ortishi va epitelial hujayralarning kamayishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu patologiyani davolashda immunomodulyator terapiya qo'llash zarurati aynan shu bilan izohlanadi.

Shunday qilib, kekxa yoshdagi insonlarda stomatologik kasalliklarning kelib chiqish sabablarini ko'plab omillar bilan izohlash mumkin. Ular organizm reaktivligining pasayishi, ko'p a'zolari qamrab oluvchi somatik patologiyalar va parodont to'qimalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi dorilarni qabul qilish bilan bog'liq. Ayniqsa, og'riq qoldiruvchi va qon bosimini tushiruvchi dorilar xavotir uyg'otadi.

Yosh o'tishi bilan tishlarning qattiq to'qimalarida gipereateziya (ortib ketgan sezuvchanlik) yuzaga keladi, bu esa ularning yemirilishi va yupqalashishi bilan bog'liq. Og'iz bo'shlig'i mikrobiotsenozi sezilarli darajada buziladi, patogen flora (oltin stafilokokk, gemolitik streptokokklar) soni oshadi, shuningdek, sog'lom odamlarda uchramaydigan mikroorganizmlar paydo bo'ladi.

Shubhasiz, kekxa yoshdagi bemorlarda mavjud stomatologik kasalliklar hayot sifatining pasayishiga va ularning ijtimoiy ajralishiga sabab bo'ladi. Hayot sifatini baholash mezonlarini o'rganish orqali nafaqat og'iz sog'lig'ini yaxshilash, balki tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini ham oshirish va bemorlarning umumiy farovonligini yaxshilash mumkin.

Shunday qilib, kekxa va qariyalar yoshida stomatologik kasalliklar rivojlanishining patogenezi organizmdagi tizimli jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ular polimorbidlik bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, og'iz bo'shlig'i to'qimalarining yoshga bog'liq degeneratsiyasi, shilliq qavatning tiklanish va kompensator qobiliyatining pasayishi, og'iz gigiyenasining sustligi va noto'g'ri davolash ham muhim omillar hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Borovskiy Ye.V. Terapevtik stomatologiya. — M.: Meditsina, 1988. — 559 bet.
2. Bajanov N.N. Stomatologiya — O TM uchun qo'llanma — Moskva: GEOTAR-M ED, 2002. - 316 bet - 7,63Mb.
3. Bazikyan E.A. va hammual. Propedevtik stomatologiya: qo'llanma — M.: GEOTAR-Media, 2010. - 768 bet.: il.
4. Barer G.M., Zoryan Ye.V., Agapov VS., Afanasev V.V. va hammual. Stomatologiyada ratsional farmakoterapiya: Praktik shifokorlar uchun qo'llanma; — M.: Litterra, 2006. — 568 bet.
5. Borovskiy Ye. V. Terapevtik stomatologiya. Tibbiyot OTM talabalari uchun o'quv qo'Uanma. — M.: «Tibbiyot ma'lumotlar agentligi». 2004. —840 bet. — 11,2 Mb.
6. Borovskiy Ye.V. Stomatologiya. Amaliy mashg' ulotlar uchun o 'quv qo'llanma. — M.: Tibbiyot, 1987 — 528 bet.
7. Borovskiy Ye.V., Ivanov VS., Maksimovskiy Yu.M., Maksimovskaya L.N. Terapevtik stomatologiya, — Moskva: Tibbiyot, 2002. — 736 bet, 11,4 Mb.
8. Gorbunova I.L. Odam tishining klinik anatomiyasi. O 'quv qo'llanma. — M.: Tibbiyot kitobi, 2006. - 136 bet. - 2,50 Mb.
9. Kamilov X.P., Mamedova F.M. «Davolash stomatologiyadan» retseptura spravochnigi, 1995.
10. Kuzmina E.M. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi. O 'quv qo'llanma. Tonga-Print, 2001. — 216 bet. 14. Kuryakina N.V M. Bolalar yoshidagi terapevtik stomatologiya.: Tibbiyot kitobi, N. Novgorod: Nashr N G M A, 2001. — 744 bet.
11. Rizayev J.A. Stomatologiyada qo'llanuvchi dori vositalari. Toshkent. — «Voriz nashriyot», 2012.
12. Safarov T.X., Raxmonov X.Sh., Safarov M.T. Tish to'qimalarining nokaries kasalliklari, — Toshkent: 2011.
13. Mixolchenko V.F. Tish kariesi va uning asoratlari tashxisi va qiyosiy tashxisi. O 'quv qo'llanma. - M.: - M:AOR «N PP «Djangan». - 2006. - 104 b.
14. Muravyannikova J.G. Stomatologik fizioterapiya asoslari. Seriya «Tibbiyot siz uchun». Rostov n/D: «Feniks», 2002. — 320 b.
15. Nikolayev A.I., Sepov L.M. Amaliyot terapevtik stomatologiya — Moskva, «Med press-inform», 2004. —548 bet.
16. Skorikova L.A., Volkov V.A., Bajenova N.P., Lapina N.V., Yerichev f.V. Stomatologik kasalliklar propedevtikasi / Rostov-na-Donu, «Feniks», 2002. — 640 bet. - 9,48 Mb.
17. Skorikova L.A., Volkov V.A., Bajenova N.P., Lapina N.V., Yerichev I.V. Stomatologiya bo'yicha qo'lanma. Lutskeya I.K 2-qayta ishJangan va to'ldirilgan nashri. Rostov n/D: «Feniks», 2002. — 544 bet. 24. Trezubov V.N. va hammualif. Stomatologik kabinet: qurilmalar, ashyolar, instrumentlan tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma / 2-qayta ishlangan va to'ldirilgan nashr.— SPb.: SpetsLit, 2006. — 144 b. —9,14Mb.
18. <http://www.stomatologu.ru>
19. <http://www.zub.ru>
20. <http://www.edentworld.ru>
21. <http://www.medlibrary.ru>

22. <http://www.medline.ru>
23. <http://www.stom.ru>

